



**Rasman taqiq ham,
ruxsat ham yo'q**

3-betda o'qing



**Ustamasiz qolgan
shifokor...**

5-betda o'qing

INSON va qonun

2023-YIL
25-APREL
SESHANBA

№ 16 (1376)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT"

**"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!**



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!




www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official/) facebook.com/hudud24official/

30

APREL

**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
REFERENDUMI
KUNI**



MAJBURIY MEHNATGA YO'L YO'Q!



Prezidentimiz 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda ham inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha amaldagi tizimning samaradorligini oshirish maqsadida Konstitutsiyamizda bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik masalasiga alohida e'tibor qaratgan edi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodekslarida voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'ymasligi to'g'risidagi talablarni buzish, ya'ni voyaga yetmagan shaxs mehnatidan uning sog'lig'iga, xavfsizligiga yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlarda foydalanish uchun ma'muriy va jinoyi javobgarlik choralari belgilangan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasining 44-moddasida "Bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi", degan qat'iy norma mustahkamlanmoqda.

Davomi 6-betda


2 JARAYON

Uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararning o'rti qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta'minlanadi" deya qayd etilgan. Mazkur norma bir necha yillardan buyon jamiyatimizda o'tkir muammolardan biriga aylangan "snos" bilan bog'liq og'riqli masalaga nisbatan xalqparvar va mulkdorlar manfaatini himoya qiluvchi oqilona yechim bo'ladi.

Bundan tashqari, fuqarolarimizning uy-joyga bo'lgan huquqining Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi turar joy daxlsizligining kafolatlarini kuchaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, xalqimizning davlatga nisbatan ishonchi mustahkamlanishiga olib keladi.

Yangilanayotgan Konstitutsiya-da nazarda tutilayotgan muhim iqtisodiy normalardan yana biri bu – mulk huquqining daxlsizligi va himoya qilinishidir. Ushbu qoida avvalo, davlatimiz iqtisodiyotida muhim rol o'ynayotgan mulkdorlar huquqlari himoya qilinishining kafolatlarini kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, mulkchilik munosabatlarining yanada mustahkam rivojlanishiga huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishiga va xalqaro maydonda munosib o'rin egallashga mustahkam huquqiy poydevor bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdadiki, mulk huquqini qat'iy ta'minlash va himoya qilish borasidagi muammolar, mansabdor shaxslar faoliyatidagi byurokratiya va sansalorlik ushbu sohada shikoyatlarining sezilarli darajada ko'payishiga olib kelayotgandi. Yuqoridagi konstitutsiyaviy norma esa o'z navbatida, mansabdor shaxslarni



KONSTITUTSIYADA MULK HUQUQI DAXLSIZLIGI

YANGI tahrirdagi Konstitutsiya loyihasida fuqarolarning barcha huquqlari, jumladan har bir shaxsning mulkdor bo'lish huquqi, mulkdorning o'z mol-mulkidan erkin foydalanishi va tasarruf etishi, undan sud qarorisiz mahrum etilmasligi, uy-joyga bo'lgan huquqning daxlsizligi, yerdan xususiy mulk sifatida foydalanish huquqining ta'minlanishi kabi normalar o'z aksini topmoqda. Qolaversa, konstitutsiyaviy qonun loyihasining 47-moddasida "Har kim uy-joyli bo'lish huquqiga ega. Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas."

mulk huquqi bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishda jiddiy hushyorlikka chaqiradi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mam-lakat yalpi ichki mahsulotidagi o'rti o'rtacha 53 foizni, qurilish sohasidagi ulushi esa 74 foizni tashkil etmoqda. Ish bilan band aholining 75 foizi aynan tadbirkorlik subyektlarida mehnat qilmoqda. Ana shu raqamlarning o'zi ham tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, soha vakillarining huquq va erkinliklari, mulklari himoya qilinishi davlat uchun naqadar muhim ekanligidan dalolat beradi.

Xususiy mulk huquqining daxlsizligi Germaniya, Daniya, Indoneziya va

Gruziya kabi rivojlangan xorijiy davlatlar Konstitutsiyalarida ham o'z aksini topgan.

Yangilanayotgan Konstitutsiya bilan nazarda tutilayotgan yana bir muhim iqtisodiy norma – bu yerdan xususiy mulk sifatida foydalanish mumkinligidir.

Bugungi kunda fuqarolarga tegishli uy-joylar, tadbirkorlarga tegishli binolar joylashgan yer uchastkalari ularga mulk huquqi asosida tegishli emas, ya'ni bino o'ziniki, yer davlatniki. Bozor iqtisodiyoti yerni ham xususiy mulk asosida ularga tegishli bo'lishini talab etadi. Shu bois mamlakatimizda fuqarolar va yuridik shaxslarga tegishli yerlarni ularni o'zlari tomonidan xususiy lashtirib olish imkoniyati yaratil-

moqda. Xususan, 2021-yil 15-noyabrda qabul qilingan "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiy lashtirish to'g'risida"gi qonunga muvofiq, fuqaro va yuridik shaxslar yer uchastkalarini xususiy lashtirishi mumkin. Xususiy mulk bo'lgan yer uchastkasining mulkdori unga nisbatan haqiqiy mulkdor sifatida uni sotish, hadya qilish, ayirboshlash, garovga qo'yish, meros qilib qoldirish huquqini qo'lga kiritadi. Eng muhimi, bunday yerni davlat faqat mulkdorning roziligi bilan sotib olsagina, yer unga o'tadi.

Yerni xususiy mulk sifatida fuqarolarga berilishi mumkinligi to'g'risidagi huquqiy normalar Gretsiya, Ruminiya, Italiya, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston Konstitutsiyalarida ham mavjud.

Ta'kidlash o'rinliki, XXI asrda Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish dunyo davlatlarida normal holat sifatida baholanmoqda. Masalan, oxirgi 23 yil davomida 57 ta davlatda yangi Konstitutsiya qabul qilingan bo'lsa, 90 ga yaqin davlatda esa konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkiniki, Konstitutsiyaviy islohotlar doirasida nazarda tutilayotgan huquqiy normalar xususiy mulkning ishonchli himoyasini ta'minlashga hamda jamiyatda kuchli va mustahkam mulkdorlar qatlamining shakllanishiga xizmat qiladi.

Qahhor JUMAYEV,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi qonunchilik va huquqiy siyosat instituti yetakchi ilmiy xodimi

INSON QADRINI ULUG'LASH KAFOLATLAB QO'YILMOQDA

SIR emaski, ayni paytgacha ak-sariyat hollarda gumonlanuvchi va ayblanuvchiga tergov organlari bilan "hamkorlikda" ish yuritiladi, aniqrog'i ularga qarshi borolmaydigan advokatlar xizmati tavsiya etilgan. Yangi tartib joriy etilsa, shaxs o'zi tanigan, ishongan advokatni tanlashiga imkon yaratiladi.

Prezidentimizning ta'kidlashicha, endi odil sudlovni ta'minlashda himoyachiga berilgan huquqlar ham qayta ko'rib chiqilib, ularga vakolatlar beriladi. Eng ahamiyatli, sudlarga jinoyat ishi faqat ayblov xulosasi bilan emas, balki himoyachining fikri bilan birga qabul qilinadi. Agar bugungi amaliyotga nazar tashlasak, tergov organi uzundan-uzoq ayblov xulosasini sudga yuboradi. Sud esa juda kam holatlarda ayblov xulosasi bilan kelishmasligi mumkin. Yoki nari borsa, ayblov o'sha moddaning yengilroq qismiga kvalifikatsiya qilinadi xolos.

Biz advokatlarni quvontirgan holat shuki, referendum asosida yangi

tahrirda qabul qilinishi kutilayotgan Konstitutsiyamizga "Advokatura" deya nomlangan, 141- va 142-moddalarni o'z ichiga olgan XXIV bob kiritilmoqda. Konstitutsiya loyihasining 141-moddasida "Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi. Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi. Advokaturani tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi" deb, 142-moddasida esa "Advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotgan-da uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi. Advokat, uning sha'ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ladi va qonun bilan muhofaza qilinadi" deya belgilanmoqda.

Ko'rinib turibdiki, kelgusida o'z xizmat vazifasini bajarayotgan ad-

vokatning faoliyatiga aralashish yoki unga turli bosim va ta'sirlar o'tkazish qonuniy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Afsuski, ba'zan ijtimoiy tarmoqlar orqali gumonlanuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan qiynoq yoxud inson qadr-qimmatini kamsituvchi g'ayriqonuniy xatti-harakatlar sodir etilganini o'qib qolamiz. Davlatimiz rahbari o'z murojaatnomasida ayni masalaga ham alohida to'xtalib, "Oxirgi paytlarda ayrim vaqtincha ushlab turish joylarida inson huquqlari buzilishi bo'yicha og'riqli masalalar ko'tarilmoqda. Bizning yurtimizda bunday holatlar umuman bo'lishi mumkin emas. Kim bunga amal qilmasa, qonun ustuvor, jazo muqarrar bo'ladi. Shu bois, bunday joylarga olib kelingan barcha shaxslarni hisobga olishning onlayn tizimi joriy etiladi va yuzni tanish uskunasi o'rnatiladi. Hech kimning unutishga haqqi yo'q – qonun talablari va inson huquqlari – biz uchun oliy qadriyat. Bosh prokuror va ichki ishlar vaziri bu haqiqatni

har bir xodimiga yetkazib, ta'sirchan nazorat o'rnatishi shart" deya uqtirdi. Advokatning o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashishi ham tergov hibsonasi yoki jazoni ijro etish muassasasida g'ayriinsoniy munosabatlar, xususan, qiynoqlar yuz berishiga chek qo'yadi. Nega-ki advokat o'z himoyasidagi shaxs-ga qanday huquq va majburiyatlari mavjudligini tushuntiradi, tegishli maslahatlarni beradi. Buning uchun zarur shart-sharoitlar ta'minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, inson qadrini ulug'lash qonun ustuvorligi va adolat mezoniga har jihatdan bog'liq. Bino-barin, amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar yurtdoshlarimizning davlatga, Bosh qomusimiz va qonunlarimizga bo'lgan ishonchi va hurmatini oshiradi. Vatan taraqqiyoti uchun daxldorlik hissini yuksaltiradi.

Qambarali ABDULHAYEV,

Qo'qon shahridagi "Adolat shamchirog'i" advokatlik firmasi rahbari

RASMAN TAQIQ HAM, RUXSAT HAM YO'Q

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi ekstrakorporal urug'lantirish, sun'iy urug'lantirish, xetching, krio-konservatsiya kabi bir qator yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanishga ruxsat beradi. Biroq biror-bir normativ-huquqiy hujjatda yuqorida qayd etilgan usullar oila uchun farzandli bo'lish imkonini bermasa, bu vaziyatda butun dunyoda keng miqyosda qo'llanilayotgan reproduktiv texnologiya, ya'ni surrogat onalik yordamga kelishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida surrogat onalikka rasman taqiq ham yo'q, ruxsat ham yo'q. Oila kodeksida ushbu tushuncha faqat bitta moddadaagina tilga olinadi. Mazkur kodeksning 207-moddasi

oltinchi qismida o'zaro nikohda bo'lgan va boshqa ayolga homilani rivojlantirish maqsadida embrionni ko'chirishga yozma rozilik bergan shaxslar bolani tuqqan ayol (qondosh ona)ning roziligi bilangina bolaning ota-onasi deb yozilishi mumkinligi qayd etilgan. Bu normada qondosh ona tushunchasi surrogat ona ma'nosida ishlatilgan.

Surrogat onalik – bahsli, biroq keng qo'llaniladigan reproduktiv texnologiya hisoblanadi. Surrogat onalikda ayol bo'lajak (biologik) ota-ona bilan oldindan kelishilgan holda qasddan homilador bo'ladi va bolani dunyoga keltiradi, tuqqandan keyin uni kelishuvga asosan ularga beradi va bu bo-

laga nisbatan onalik huquqi va boshqa huquqlarni da'vo qilishdan mahrum bo'ladi. Surrogat onalikka huquqiy jihatdan baho berganda, u shartnomaviy munosabat hisoblanadi. Jahon amaliyotida ikki xil – ya'ni "an'anaviy" va "gestatsion" surrogat onalik keng tarqalgan. Bundan tashqari, moliyalashtirishiga ko'ra, altruistik (faqat xarajatlar qoplanadi va farzandsiz oilaga yordam berish maqsad qilindi) yoki tijorat (surrogat ona o'z xizmati uchun mukofot oladi) kabi surrogat onalik ko'rinishlari ham mavjud. Bir qator rivojlangan davlatlarda faqat altruistik surrogat onalikka ruxsat berilgan, tijorat surrogat onalik esa taqiqlangan.


XORIY TAJRIBASI QANDAY?

Rossiya Federatsiyasida surrogat onalikka rasman ruxsat berilgan – 20–35 yoshdagi istagan ayol surrogat ona bo'lishi mumkin, faqat gestatsion surrogat onalikka jiddiy sabablar (homiladorlikka to'sqinlik qiluvchi kasalliklar) mavjud bo'lgandagina ruxsat etiladi. Shu bilan birga, chet el fuqarolari tomonidan surrogat ona xizmatlaridan foydalanishni taqiqlash Rossiya qonunchiligidagi yangiliklardan biri bo'ldi. 2022-yil 19-dekabrda Rossiya Federatsiyasining Oila kodeksi biologik ota-onalarning fuqaroligiga oid talab bilan to'ldirildi, ya'ni shartnomani imzolash paytida ulardan kamida bittasi Rossiya fuqarosi bo'lishi kerak. Ukrainada aksincha tijorat surrogat onalikka yo'l qo'yiladi, ammo ayrim cheklorlar ham mavjud, xususan buyurtmachil ayol va erkakdan iborat oila bo'lishi zarur.

Surrogat onalik ruxsat etilgan boshqa bir qator xorijiy davlatlarda quyidagi talab va qoidalar belgilangan.

Armaniston, Gruziya, Isroil, Qozog'iston, Qirg'iziston, Kanada va AQShning bir qator shtatlarida qonuniy asosda ruxsat etiladi. Belarusda faqat tibbiy sabablarga ko'ra o'zi homilador bo'la olmaydigan ayollarga surrogat onalikdan foydalanishi mumkin.

Avstraliya, Buyuk Britaniya, Daniya, Portugaliya, Janubiy Afrika Respublikasida surrogat ona biologik ota-onalarga faqat bepul yordam berishi mumkin.



SURROGAT ONALIK

BU HAQDA NIMALARNI BILAMIZ?

SO'NGGI yillarda aholining reproduktiv salomatligini muhofaza qilishga oid o'ndan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 2019-yil 11-martda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi qonuni ana shu muhim hujjatlardan biridir.


Hindistonda faqat altruistik surrogat onalikka ruxsat etiladi.

Avstriya, Vengriya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Moldaviya, Norvegiya, Ruminiya, Fransiya, Shveysariya, Shvetsiya, Estoniya, Xitoy, Nepal, Tailanda surrogat onalik qonun bilan taqiqlangan bo'lsa-da, ammo bu mamlakatlar fuqarolari boshqa xorijiy davlatlarda surrogat onalik xizmatlaridan

Mazkur qonunning 10-moddasida fuqarolarning asosiy reproduktiv huquqlari qatorida yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanishi belgilangan bo'lib, yordamchi reproduktiv texnologiyalar urug'lantirishning ayrim yoki barcha bosqichlari ayolning organizmidan tashqarida amalga oshiriladigan homiladorlikka erishishga qaratilgan tibbiy texnologiyalar, davolash usullari va muolajalaridan iborat.

keng foydalanishadi.


O'zbekiston sharoitida surrogat onalikka oid shartnoma Fuqarolik kodeksining 116-moddasiga muvofiq, huquq-tartibot yoki axloq asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitim sifatida o'z-o'zidan haqiqiy emas deb hisoblanadi. Tibbiy muassasalar bunday xizmatlar ko'rsatilmagligi sababli mamlakatimiz fuqarolari surrogat onalik xizmatlaridan bunday faoliyatga ruxsat etilgan xorijiy mamlakatlarga borib foydalanishga majbur bo'lmoqda. Transchegaraviy surrogat onalikda esa surrogat ona tomonidan aldov, beqaror siyosiy vaziyat,



buyurtmachilarni ota-ona sifatida ro'yxatdan o'tkazish, tug'ilgan bolaning fuqaroligi, bolaning O'zbekiston hududiga kirishi bilan bog'liq bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, surrogat onalik xizmatlari arzon emas.

Shu boisdan ham aholining reproduktiv salomatligini saqlash, oilani mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun transchegaraviy surrogatlik xavfini kamaytirish maqsadida mavjud yordamchi reproduktiv texnologiyalar ro'yxatini surrogatlik bilan to'ldirish maqsadga muvofiqdir.

Dinara BOBOJANOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti



4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA



QORAQALPOG'ISTON



"NUKUS poligrafkombinati" mas'uliyati cheklangan jamiyatining kompensatsiya pulini undirib berishni so'rab Nukus shahar adliya bo'limiga qilgan murojaati bo'lim xodimlari tomonidan qonun doirasida o'rganib chiqildi.

HOKIMLIKDAN
HAQ UNDIRILDI

Prezidentning 2018-yil 2-avgustdagi "Respublika hududlarida "Business City" zamonaviy ishbiarmonlik markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan Nukus shahrida "It-park" markazining qurilishiga oid Nukus shahar hokimining 2020-yil 4-iyundagi 368-sonli qarori qabul qilindi.

Shahar hokimining mazkur qaroriga muvofiq shahardagi "Qoraqalpog'iston" ko'chasi, 9-uy manzilida joylashgan "Nukus poligrafkombinati" MChJ-ga tegishli bo'lgan yer uchastkalardagi inshootni buzib, yer o'rnini shahar hokimligi yer fondiga qaytarib olish va kompensatsiya pulini to'lab berish nazarda tutilgan.

Shahar hokimligi va MChJ o'rtasida olib qo'yilishi rejalashtirilgan yer uchastkasi, unda joylashgan imoratlar uchun kompensatsiya to'lovini amalga oshirish haqida 2020-yil 20-avgustda notarial tartibda kelishuv shartnomasi rasmiylashtirilgan bo'lib, ushbu shartnomaga asosan hokimlik tomonidan 9 milliard 748 million so'm miqdorida kompensatsiya puli to'lab berilishi belgilangan.

MChJ tomonidan shartnoma shartlari to'liq bajarilgan bo'lishiga qaramasdan, shahar hokimligi kompensatsiya pulini to'lamagan.

Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Yer uchastkalari olib qo'yilishi va olib qo'yilayotgan yer uchastkasida joylashgan ko'chmas mulk obyektlari mulkdorlariga kompensatsiya berish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 41-bandiga muvofiq quyidagilar kompensatsiya qilib beriladi:

- ✓ olib qo'yilgan yer uchastkasida joylashgan ko'chmas mulk obyektlarining bozor qiymati;
- ✓ olib qo'yilgan yer uchastkasiga bo'lgan huquqning bozor qiymati;
- ✓ ko'chirish, shu jumladan, boshqa ko'chmas mulk obyektni vaqtinchalik olish bilan bog'liq xarajalar;
- ✓ jismoniy va yuridik shaxslarning boy berilgan foydasi;
- ✓ qonun hujjatlarida yoki kelishuvda nazarda tutilgan boshqa xarajalar va zararlar.

Mazkur holat yuzasidan adliya bo'limi tomonidan Nukus tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo ariza kiritilib, da'vo qanoatlantirildi. "Nukus poligrafkombinati" MChJ foydasiga Nukus shahar hokimligi hisobidan 9 milliard 748 million so'm kompensatsiya puli undirib berilishi haqida hal qiluv qarori qabul qilindi.

Nurniyaz SAPARNIYAZOV,
Nukus shahar adliya bo'limi boshlig'i



SURXONDARYO


Reglamentga ko'ra, 2022-yil 1-oktabrdan keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga sanatoriylarda davolanish uchun yo'llanmalar faqat davlat xizmatlari markazi yoki YIDXP (my.gov.uz) orqali beriladi.

Yo'llanmalar quyidagi toifadagi keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga:

- ✓ urush nogironlariga va qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslarga;
- ✓ halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yangi nikohdan o'tmagan beva xotinlari (beva erlari)ga;
- ✓ respublika ahamiyatiga molik shaxsiy pensiya oluvchi shaxslarga;
- ✓ Chernobil AES halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshidan kechirgan shaxslar, shuningdek, Chernobil halokati sababli nogiron bo'lib qolgan shaxslarga;
- ✓ yadro poligonlari va boshqa radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarga;
- ✓ I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar, ko'zi ojiz I guruh nogironini kuzatib boruvchi shaxsga;
- ✓ o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalarga;
- ✓ yoshga doir pensiya oluvchilarga beriladi.

Yo'llanmalarni berish davriyligi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- 1) har yili – navbat asosida:
 - ✓ urush nogironlariga tenglashtirilgan shaxslarga;
 - ✓ respublika ahamiyatiga molik shaxsiy pensiya oluvchi shaxslarga;
 - ✓ Chernobil AES halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshidan kechirgan shaxslar, shuningdek, Chernobil halokati sababli nogiron bo'lib qolgan shaxslarga;
 - ✓ yadro poligonlari va boshqa radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarga;
 - ✓ o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalarga;
- 2) ikki yilda bir marotaba – navbat asosida:
 - ✓ urush qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslarga;
 - ✓ halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yangi nikohdan o'tmagan beva xotinlariga (beva erlariga);



HUKUMAT qarori bilan keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga sanatoriylarda davolanish uchun yo'llanmalar berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti tasdiqlangan.

Sanatoriylarga
yo'llanma kimlarga
beriladi?

- ✓ I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga, ko'zi ojiz I guruh nogironini kuzatib boruvchi shaxsga;
- 3) uch yilda bir marotaba – navbat asosida yoshga doir pensiya oluvchilarga.

Urush nogironlariga va qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslar toifasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan aniqlanadi.

Davlat xizmatlari ko'rsatilgani uchun yig'im undirilmaydi.

Yo'llanmalar keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga 12 kunga, yo'llanmalarining amal qilish muddati boshlanishidan 10 kun oldin beriladi.

Yo'llanmalar faqat ularda ko'rsatilgan muddatlarda haqiqiy hisoblanadi.

Yo'llanmada ko'rsatilgan muddatdan oldin sanatoriya qabul qilinmaydi, sanatoriya kechikib kelingan kunlar tiklanmaydi.

Yo'llanmadan faqat unda ko'rsatilgan shaxsgina foydalanishi mumkin. Bitta yo'llanma bilan bit-tadan ortiq kishi jumladan, yosh bolalar ham qabul qilinmaydi.

Bahodir XUDOYBERDIYEV,
Termiz tuman adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi direktori



TOSHKENT



FUQAROLARNING huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini huquqiy himoya qilish adliya organlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

FUQARONING
HUQUQI
TIKLANDI

Bektemir tuman adliya bo'limida ham fuqarolar murojaatlarini ijobiy hal etish doimiy nazoratda. Xususan, 2022-yil davomida 11 nafar fuqaroning pensiyaga doir huquq va manfaatlarini ko'zlab sudlarga kiritilgan ariza qanoatlantirilgan

bo'lsa, 2023-yilning dastlabki choragida 19 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan pensionerining huquq va manfaatlarini ko'zlab sudlarga kiritilgan ariza qanoatlantirilib, ularning buzilgan huquq va manfaatlari sud orqali tiklandi.

Jumladan, Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tuman bo'limi tomonidan tuman-dagi fuqaro Sh. Saydaliyevning yoshga doir pensiyaga chiqishda 6 yillik ish staji hisobga olinmasdan, asossiz ravishda rad qilingan. Fuqaroning amaliy yordam so'rab adliya bo'limiga qilgan murojaati o'rganilib, Toshkent tumanlararo ma'muriy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sud qarori bilan fuqaroning 6 yillik davrdagi ish stajiga tegishli ekani fakti belgilandi.

Sherzod RASULOV,
Bektemir tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

QORAQALPOG'ISTON

ZARAR
SUD ORQALI UNDIRILDI

Mehnat kodeksining 192-moddasida xodim mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligi yoki mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetishi sababli vafot etgan hollarda, ish beruvchi marhumning qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga, shuningdek, o'n olti yoshga to'lmagan yoki u vafot etgan kunga qadar undan ta'minot olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga, marhumning vafotidan keyin tug'ilgan farzandiga, shuningdek, ota-onasidan biriga, umr yo'ldoshiga yoki oilaning boshqa a'zosisiga, agar u ish-lamasdan marhumning uch yoshga yetmagan bolalari (ukalari, singillari) yoki nevaralarining parvarishi bilan band bo'lsa, zararni to'lashi shartligi ko'rsatilgan.


Yuqoridagilarga asosan adliya bo'limi tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha Nukus tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritilib, qarzdor "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Qoraqalpog'iston hududiy filialidan fuqaro D.U. foydasiga 224 million 213 ming 965 so'm zarar puli undirilishi ta'minlandi.

Azamat SHABATOV,
Xo'jayli tuman adliya bo'limi boshlig'i

FUQARO D.U.ning turmush o'rtog'i M.A. 2022-yil 15-iyul kuni "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Qoraqalpog'iston hududiy filiali Xo'jayli tuman bo'limida o'z xizmat vazifasini bajarish vaqtida baxtsiz hodisa natijasida vafot etgani, lekin ish beruvchi yoki sug'urta tashkiloti tomonidan zarar puli berilmayotganidan norozi bo'lib yo'l-lagan murojaati Xo'jayli tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganib chiqildi.

SURXONDARYO

UZUN tumani, "Bobotog" mahallasi-da yashovchi fuqaro A. Mingnarov tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, tuman tibbiyot barlashmasiga qarashli 76-sonli oilaviy poliklinikada 2015-yildan buyon umumiy amaliyot shifokori vazifasida ishlab kelishini, yangi qabul qilingan qonun talablarida unga ustama to'lab berish belgilangan bo'lsa-da, to'lab berilmayotganidan noroziligini bildirgan.

USTAMASIZ
QOLGAN
SHIFOKOR...

Holbuki, 2022-yil 25-apreldagi Prezident qarorida olis va chekka hududlardagi oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarda faoliyat yuritayotgan barcha shifokorlar oylik ish haqiga qo'shimcha 2 million so'm miqdorida har oylik ustama belgilanishi hamda ularga o'zi ishlayotgan olis va chekka hududdan ipoteka krediti asosida uy-joy sotib olishda uy-joy qiymatining 50 foizigacha qismi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 500 barobaridan oshmagan miqdorda mahalliy budget mablag'lari hisobidan qoplab berilishi belgilangan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-sentabrdagi qarori ilovasi bilan birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalari-da faoliyat yuritayotgan shifokorlar oylik ish haqiga qo'shimcha har oylik ustama to'lanadigan olis va chekka hududlar ro'yxatiga "Bobotog" mahallasi ham kiritilgan.

Aniqlanishicha, A. Mingnarov haqiqatan ham, "Bobotog" hududida joylashgan 76-sonli oilaviy poliklinikada birlashma boshlig'ining buyrug'iga asosan 2015-yil 6-iyuldan buyon umumiy amaliyot shifokori hamda pediatr shifokor bo'lib ishlab kelayotgan bo'lsa-da, 2022-yilning iyul oyidan dekabr oyiga qadar qat'iy belgilangan har oylik ish haqiga qo'shimcha 2 million so'mdan, jami 12 million so'm ustama puli to'lab berilmagani ma'lum bo'ldi.

O'rganish natijalariga ko'ra, tuman adliya bo'limi tomonidan A. Mingnarovning manfaatini ko'zlab fuqarolik ishlari bo'yicha Sari-osiyo tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritilib, sudning hal qiluv qaroriga asosan TTB hisobidan shifokor A. Mingnarov foydasiga 12 million so'm ustama puli undirib berildi.

Mas'umjon HATAMOV,
Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi
boshlig'ining birinchi o'rinbosari

SURXONDARYO

KORRUPSIYAGA qarshi kurashish agentligi direktorining buyrug'i bilan davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

DAVLAT XIZMATCHISI
SOVG'A OLISHI MUMKINMI?

Nizomga asosan, davlat xizmatchilari tomonidan o'zlarining xizmat vakolatlarini jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini ko'zlab bajarish yoki bajarmaslik evaziga ulardan har qanday sovg'alar olish taqiqlanadi. Bular jumlasiga davlat xizmatchisi tomonidan alohida xizmatlari uchun davlat organining tegishli qarori asosida olingan sovg'alar, shuningdek musobaqalar va tanlovlarda erishgan yutuqlari, davlat bayramlari, nishonlanadigan sanalar hamda boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan mukofotlash natijasida olingan sovg'alar kirmaydi.

Davlat xizmatchisi chet elda amalga oshiriladigan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar, shuningdek O'zbekiston hududida o'tkaziladigan xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan sovg'a olishi mumkin.

Bunda sovg'a:

- ✓ O'zbekiston qonunchilik hujjatlari, davlat organining ichki idoraviy hujjatlariga muvofiq bo'lishi;
- ✓ sovg'a uni beruvchi tomonidan aniq bir xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan ixtiyoriy taqdim etilgan bo'lishi;
- ✓ manfaatlar to'qnashuvi yoki korruptsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqishiga sabab bo'lmasligi, xususan davlat xizmatchisining xizmat faoliyatida xolis qaror qabul qilishiga ta'sir ko'rsatadigan majburiyatni yuzaga keltirmasligi lozim.

Davlat xizmatchisi chet elda amalga oshiriladigan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar vaqtida sovg'a berilishini talab qilishi yoki iktimos qilishi mumkin emas.

Davlat xizmatchisi sovg'a beruvchidan uning sovg'a-sining qiymatini tasdiqlovchi hujjatlarni (kassa yoki tovar chekini yoxud boshqa hujjatlarni) so'rab olishi mumkin.

Davlat xizmatchisiga taqdim etilgan guldasta, oziq-ovqat mahsulotlari (qandolat mahsulotlari va boshqalar), kanslyariya to'plamlari (taqvim, buklet, ruchka va bloknot) sovg'a hisoblanmaydi va rasmiylashtirilmaydi.

Xodim xizmat safaridan qaytib kelgan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat organining korruptsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat bo'linmasiga sovg'a olingani to'g'risida hisobotni topshiradi.

Chek yoki kvitansiya mavjud bo'lmagan taqdirda sovg'aning qiymati ichki yoki tashqi ekspertiza yordamida aniqlanadi.

Sovg'aning qiymati BHMning 4 baravaridan ko'p bo'lmagan taqdirda, u xodimda qoldiriladi. Agarda sovg'aning qiymati BHMning 4 baravaridan ortiq bo'lsa, davlat organining balansiga kirim qilinadi.

Ilhom MANNONOV,

Boysun tuman adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi
direktori

6 KO'ZGU

MAJBURIY MEHNATGA
YO'L YO'Q!

O'ZBEKISTON 2008-yilda Xalqaro mehnat tashkilotining bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilgan.

Prezidentimiz 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda ham inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha amaldagi tizimning samaradorligini oshirish maqsadida Konstitutsiyamizda bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik masalasiga alohida e'tibor qaratgan edi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodekslarida voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'ymasligi to'g'risidagi talablarni buzish, ya'ni voyaga yetmagan shaxs mehnatidan uning sog'lig'iga, xavfsizligiga yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlarda foydalanish uchun ma'muriy va jinoyi javobgarlik choralarini belgilangan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasining 44-moddasida "Bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi", degan qat'iy norma mustahkamlanmoqda.

Paxta dalalarida yoki boshqa qishloq xo'jaligi ishlarida, umuman, boshqa sohalarida ham bolalar mehnatidan foydalanish, ayniqsa, ularni jalb qilishning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha tizimli va qat'iy islohotlar natijasida O'zbekistonda bolalarning majburiy mehnati to'liq barham topdi. Endilikda bu boradagi davlat siyosatini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlashga qaratilgan muhim qadamlar tashlanmoqda.

Xalqaro mehnat tashkilotining o'z oldiga qo'yan asosiy maqsadlardan biri bu bolalar mehnatiga barham berish hisoblanadi. Bundan tashqari, 1919-yildan beri XMT o'zining standartlarni ishlab chiqish faoliyatida an'anaviy ravishda eng kam yosh standartlari maktab ta'limi bilan bog'liq bo'lishi kerak deb hisoblaydi. 1973-yilda qabul qilingan eng kam yosh to'g'risidagi konvensiya (138-sonli konvensiya) ushbu an'anani o'zida mujassam etgan bo'lib, mehnatga layoqatli bo'lishning eng kam yoshi majburiy ta'limni tugatish yoshidan past bo'lmisligi kerakligi ko'rsatilgan.

Konstitutsiyamizga kiritilayotgan mazkur norma mamlakatimizda ushbu sohada erishilgan yutuqlarni qat'iy mustahkamlaydi hamda bolalar sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun muhim huquqiy kafolat bo'lib xizmat qiladi.


Ayni paytda, ushbu konstitutsiyaviy norma bolalarning sog'lig'i, xavfsizligi, to'liq jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishiga tahdid solmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan tarzda mehnat qilishlariga to'sqinlik qilmaydi.

Xususan, amaldagi Mehnat kodeksiga muvofiq mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, o'rta maxsus kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilarini ularning sog'lig'i, xavfsizligi, to'liq jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishiga tahdid solmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o'qishdan bo'sh vaqtida bajarishi uchun ular o'n besh yoshga to'lganidan keyin ota-onasidan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

Nodirbek YUSUPOV,

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

TA'LIM muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari oldiga qo'yilayotgan bugungi kundagi eng muhim talab bu o'zini o'zi moliyalashtirish hisoblanadi. Akademik muassasalar qanday yo'l bilan mustaqil moliyalashtirishni amalga oshirishi mumkin degan savol tug'ilishi tabiiy. So'zsiz buni ular tomonidan yaratiladigan va amaliyotga joriy etiladigan mahsulotlar va xizmatlar tashkil etadi. Uning negizi sifatida inson kapitali va intellektual mulkni keltirish mumkin. Lekin qayd etish lozimki, bugungi kuchli raqobat muhitida, ayniqsa, iqtisodiyoti o'tish davridagi mamlakatlar ta'lim va ilmiy muassasalari uchun bu jarayon yanada murakkab hisoblanadi. Zero, dunyoga mashhur bo'lgan Stenford, Kolumbiya, Garvard, Kembrij kabi universitetlarning eng muhim yutuqlari va mashhurlik darajasi ham aynan ushbu muassasa olimlari hamda tadqiqotchilari tomonidan yaratilib, tijoratlashtirishga joriy etilgan intellektual mulk obyektlari samaradorligi bilan xarakterlanadi.

INTELLEKTUAL MULK
tijoratlashtirilmoqda

"O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonun loyihasining 53-moddasida "Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi" mazmunidagi band o'rin olishi ham ushbu yo'nalish bilan bog'liq islohotlar hamda jarayonlarni keng tarzda amalga oshirilishida muhim o'rinni tutadi. Iqtisodiy qudratli mamlakatlar konstitutsiyalarida intellektual mulk siyosati, xususan uning davlat muhofazasiga olinganligi hamda mualliflar huquqlari himoyada ekanligiga doir normalar mavjud.

Jahon amaliyotida universitetlar va ilmiy-tadqiqot muassasalarining bu yo'nalishdagi faoliyatiga alohida e'tibor qaratiladi. Odatda bu yo'nalish universitetlar yaratgan intellektual mulkni litsenziyalash hamda universitet

uchun intellektual mulkni yaratish va uni tijoratlashtirish maqsadida alohida tuzilma tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Afsuski, mamlakatimizda intellektual mulkni tijoratlashtirishning past ko'rsatkichi akademik muassasalar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yilmagani bilan xarakterlanadi. Bu kabi holatlardan chiqishning yagona yo'li tashabbusni akademik muassasalar o'z qo'lga olgan holda yaratilgan intellektual mulkni bozorga mustaqil olib chiqishda deb o'ylayman. Ko'plab mamlakatlar, xususan Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari universitetlari ushbu muammoni hal qilish maqsadida o'zlarining mustaqil akademik startaplarini shakllantirib, past darajadagi tijoratlashtirish ko'rsatkichlarini yuksaltirishga erishishgan.

Amaliyotda akademik muassasalar tadqiqotchilarining asosiy muammolaridan yana biri, bu ular yaratgan intellektual mulk obyektlarini xorijda patentlash jarayoni va u bilan bog'liq qiyinchiliklar haqida bo'ladi. Ko'pincha, bu turdagi masala uning moddiy ta'minoti bilan bog'liq sanaladi. Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirining tegishli buyrug'i bilan Davlat ilmiy dasturlari doirasida yaratilgan intellektual mulk huquqlari (patentlar)ni xorijda ro'yxatdan o'tkazish va qo'llab-quvvatlash xarajatlarini to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom tasdiqlangan.

Mamlakatimiz qonunchiligida intellektual mulkni tijoratlashtirishni rag'batlantirishga doir ko'plab normalar belgilangan. Akademik muassasalar rahbariyati va mutasaddi vakillar ayni ushbu jihatlarni keng tadqiqotchilar doirasiga yetkazishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti tomonidan ham bir qator loyihalar yo'lga qo'yilgan. Bular ichida Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari alohida o'rinni tutadi. Ushbu markazlar faoliyati ham bevosita ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan yaratilayotgan turli ishlanmalarni huquqiy muhofazaga olinishi hamda ularni tijoratlashtirish va intellektual mulkka doir marketing texnologiyalarini amalga oshirishda qo'llab-quvvatlashdan iborat. Ushbu loyiha asosida 2018-yildan boshlab mamlakatimizda ham yetakchi universitetlar va ilmiy-tadqiqot muassasalari tizimida Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari faoliyati yo'lga qo'yilib bugungi kunga kelib, bunday markazlar soni 20 dan ortdi.

Bundan tashqari, jahon amaliyotida universitetlar tarkibida intellektual mulk markazlari faoliyati ham mavjud. Ularning vazifasi nafaqat o'qitish bilan bog'liq, balki ushbu muassasaning intellektual mulk bo'yicha strategiyalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishdan iborat.


Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda universitetlarda intellektual mulkni o'qitishga mo'ljallangan kafedra va markazlar faoliyati faqatgina o'quv jarayoni bilan cheklanib qolmasligi lozim. Zero, ular faoliyatida intellektual mulkni tijoratlashtirish istiqbollarini o'rganish, intellektual mulk bilan bog'liq shartnomaviy munosabatlarda qatnashish, tijorat siridan foydalanishda huquqiy yordam ko'rsatish, intellektual mulkni amaliyotda qo'llashga doir imtiyozlardan xabardor bo'lishlik hamda ulardan foydalanish, intellektual mulk huquqi bilan bog'liq nizoli jarayonlarni hal etishga doir tavsiyalar kabi masalalar ham ular faoliyatining asosini tashkil etishi lozim.

Abdumomin YULDASHOV,

Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti

ASRLAR davomida jamiyat tuzumining o'zgarib borishi insonlar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni vujudga keltirgan. Dastlab quldorlik tuzumi davrida qullar jamiyatning obyekti hisoblanib, mehnat qilish majburiy bo'lgan. Bunda mehnat qiluvchi va mehnatga jalb qilgan shaxs o'rtasida hech qanday huquqiy munosabat vujudga kelmagan.

Mehnat huquqini fuqarolik huquq tizimidan ajratgan



Keyinchalik jamiyat tuzumining o'zgarishi ijtimoiy munosabatlarning takomillashib borishiga sabab bo'lgan. Xususan, N. Karabagazovning fikricha, aynan Napoleon kodeksi tufayli mehnat huquqi fuqarolik huquq tizimidan ajralib chiqqan.

Mehnat huquqi fuqarolik, oila, jinoyat huquqiga nisbatan yosh huquq tarmoqlaridan bo'lib, adabiyotlarga ko'ra, uning paydo bo'lishi XVIII-XIX asrlarga borib taqaladi. Mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi dastlabki qonunlar rivojlangan Yevropa davlatlarida XIX asr boshida qabul qilingan.

Mehnat huquqi tarixiga oid manbalarga ko'ra, Buyuk Britaniyada sanoat va ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi natijasida ishchi kuchiga talabning tobora ortishi XIX asr boshida mehnat munosabatlarini qonunchilik yo'li bilan tartibga solish lozimligini taqozo etadi va shu tufayli ish beruvchi va ishchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun dastlabki qonunlar qabul qilingan.

O'sha davrda sanoat va ishlab chiqarish korxonalari tomonidan yetim va ijtimoiy himoyaga muhtoj

qatlamlar bolalarining mehnatidan foydalanilgan. Shunga ko'ra, Angliya parlamenti tomonidan 1802-yilda bolalarni tungi ishga jalb qilishni cheklash va kundalik ish vaqtini 12 soatga qisqartirish haqida qonun qabul qilingan. Shuningdek, mazkur qonun bilan 9 yoshgacha bo'lgan bolalarning mehnatidan foydalanish taqiqlangan.

1833-yilda mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi boshqa qonunlar qabul qilingan va unga ko'ra, 9-18 yoshgacha bo'lgan bolalar kunlik ishining davomiyligi 8 soat etib belgilangan.

1847-yilda o'smirlar va ayollar mehnatining kunlik davomiyligini 10 soat etib belgilash haqidagi normalarni o'z ichiga oluvchi qonun hujjatlari qabul qilingan.

Fransiyada ham mehnat munosabatlarini qonun yo'li bilan tartibga solish dastlab bolalar mehnatini tartibga solishdan boshlangan. 1841-yilda 9 yoshgacha bo'lgan bolalar mehnatidan foydalanish hamda 13 yoshdan kichik bolalarni tungi mehnatga jalb qilishni taqiqlash to'g'risidagi normalar qabul qilingan.

Shuningdek, 1848-yildagi Fevral revolyutsiyasidan so'ng Parij aholi mehnatkashlarining kunlik ish davomiyligi 10 soat, boshqa hudud

aholisi uchun 11 soat etib belgilangan qonun hujjati qabul qilingan. Biroq, ko'p o'tmay ushbu qonun bekor qilingan va 1848-yil 9-sentyabrdagi qonun hujjatiga ko'ra, fabrika va ishlab chiqarishda faoliyat yurituvchi mehnatkashlarning barchasiga kunlik 12 soatlik ish davomiyligi belgilangan.

Mehnat munosabatlarining rivojlanishi AQShda birmuncha munozarali kechib, ayollar va yosh bolalar mehnati vaqtini qisqartirish haqidagi qonun hujjatlari tadbirkorlar e'tiroziga sabab bo'lgan va sudlar tomonidan bu qonun hujjatlari konstitutsiyaga zid deb topilib, haqiqiy emas deb topilgan.

Germaniyada 1833-yilda "Kasallikdan sug'urtalash to'g'risida"gi, 1884-yilda "Baxtsiz hodisadan sug'urtalash to'g'risida"gi, 1889-yilda "Keksalik va nogironlik bo'yicha sug'urtalash to'g'risida"gi qonunlar qabul qilingan.

Rossiya Federatsiyasida 1882-1903-yillar oralig'ida mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi 9 ta asosiy qonun hujjati qabul qilingan. Dastlabki 1882-yilda qabul qilingan "Fabrika, zavod va manufakturalarda ishlovchi kichik yoshdagi bolalar to'g'risida"gi qonun bo'lib, unga asosan zavod, fabrika va manufakturalarda 12 yoshgacha bo'lgan bolalarning mehnatidan foydalanishni taqiqlash, 12 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar mehnat-

tini muhofaza qilish, ya'ni ish vaqtini qisqartirish, ularni tungi ishlarga jalb qilinishini, dam olish va bayram kunlari ishga jalb etishini, kichik yoshdagi bolalar va 15-17 yoshdagi o'smirlarni zararli va xavfli ishlarga jalb etishni taqiqlash nazarda tutilgan.

Bir qator mehnat sohasiga oid qonun hujjatlaridan so'ng, 1918-yilda birinchi mehnat qonunlari to'g'risidagi kodeks qabul qilinadi, adabiyotlarda keltirilishicha, mazkur kodeks xalqaro huquq amaliyotida dunyo bo'yicha mehnat qonunlarini o'zida jamlagan, kodifikatsiyalangan birinchi kodeks hisoblanadi, chunki G'arb mamlakatlari bu kabi kodekslar ikkinchi jahon urushidan so'ng qabul qilingan. Mazkur kodeksga mehnat qilish va dam olish to'g'risidagi normalar, o'smirlar va ayollarga imtiyozlar, nizolarni kassaba uyushmasi va mehnat inspeksiyalarida hal etish, ijtimoiy to'lovlarni davlat hisobidan to'lash kabi bir qator normalar kiritilgan.

Ijtimoiy hayot, sanoat, texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida ijtimoiy munosabatlar ham mutanosib ravishda takomillashib borgan, mehnat qonunchiligiga yangi normalarni kiritishni, yangi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishni taqozo etgan.

Mavluda BOBORAIMOVA,
Sudyalar oliy Kengashi huzuridagi
sudyalar oliy maktabi tinglevchisi

E'LOMLAR

Xorazm viloyat adliya boshqarmasi tomonidan Shovot tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius To'rayev Ro'zimning oltin besh yoshga to'lganligi sababli xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi arizasi hamda Notarial palata Xorazm viloyat hududiy boshqarmasining 2023-yil 30-martdagi 78-sonli xatiga binoan boshqarmaning 2023-yil 13-apreldagi 54-um-son buyrug'iga asosan unga Xorazm viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2020-yil 21-aprel kuni xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi

HZ №0018-son bilan berilgan litsenziyaning amal qilishi va notariuslik maqomi tugatildi.

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 13-apreldagi 13/2023-son yig'ilish bayonnomasi hamda Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 14-apreldagi 89-um-son buyrug'ini bilan Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 22.04.2020-yilda Olmaliq shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius A.Manapovga berilgan TS 0048-raqamli litsenziyaning amal qilishini 2023-yil 17-aprel kundan 3 oy

muddatga to'xtatildi.

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 13-apreldagi 13/2023-son yig'ilish bayonnomasi hamda Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 14-apreldagi 90-um-son buyrug'ini bilan Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 20.04.2020-yilda Bo'ka tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sh.Yoqubovaga berilgan TS 0012-raqamli litsenziyaning amal qilishi 2023-yil 17-aprel kundan 1 oy muddatga to'xtatildi.

Namangan viloyat adliya boshqarmasi jamoasi boshqarmaning Rejalashtirish va nazorat-tahlil shoxbasi boshlig'i Murodilla Mamatkulovga otasi **Abdusamad MAMATQULOV**ning vafot etganligi munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

8 JURNALIST KUZATUVI

Ijtimoiy tarmoqlarni kuzatsangiz ayrim odamlarning vahshiylarcha harakatlarga, kishini dahshatga soladigan lavhalarga ko'zingiz tushadi. Maktab o'quvchisini zo'rlab, xo'rlab o'ldirgan yovuz qo'shni, o'z onasiga pichoq sanchgan nobakor o'g'il, xotinini yoqib yuborgan qotil erkak, o'z bolalarining joniga qasd qilgan ona, qizini qaltaklagan ota... Bularning barchasi hayotdan olingan dahshatli parchalar. Yurakni o'pirib yuboradigan xabarlar. Afsuski, bunday voqealar shu qadar ko'p va tez takrorlanayotgani, bu fojialarning oddiy holga aylanib borayotgani kishini battar xavotirga soladi.

"ZULM – BU BIR LAHZALIK AKT EMASI!"

Shu kunlarda Surxondaryo viloyati Uzun tumanidagi maktablardan birida bo'lgan yana bir ayanchli voqeani ko'rib barcha g'azabdan titrayapti. Ta'lim muassasasida o'qituvchi ayollarga nisbatan bunday zo'ravonlikning sodir etilishini hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Jamoa o'rtasida bunday mushtumzo'rning borligi, uning o'quvchilarga ta'lim berishiga yo'l qo'yilgani qanchalik xavfli. Tasavvur qiling, darsga biror sabab bilan tayyorlanmasdan kelgan o'quvchi shuning qo'lga tushib qolsa... O'quvchining ahvoli nima kechadi? Videolavhani ko'rib bu maktabda ijtimoiy ma'naviy muhitni sog'lom deb bo'ladimi? Maktab direktorining reaksiyasi shu bo'lsa boshqalardan nimani kutish mumkin. Balki bu maktabdagi o'quvchilar bundan ham battar zo'ravonliklarga duch kelayotgandir va yopig'liq qazon yopig'ligicha qolayotgandir? Bunisi bizga qorong'u. Ammo muallimlarga erkak hamkasbining tashlanishi, ularni ayovsiz do'pposlashi, haqorat qilishi o'qituvchilarning nafaqat ta-



QUTURISH degan ibora yoki taqqos aslida hayvonlarga nisbatan ishlatildi. Buni insonga nisbatan ishlatishni aslo istamasdik! Afsuski... Biz nega "quturdik"? Nega quyushqondan chiqayapmiz? Nega o'z qavmimizni kaltaklashdan huzur qilayapmiz? Nega sharmandalikdan uyalmaydigan, xunrezlikdan qaytmaydigan, vahshiylardan rohat qiladigan darajaga yetdik? Bizga nima bo'ldi, odamlar?!

Ayolga tahdid – OJIZLIK VA YOVUZLIK BELGISI

nasiga balki qalbiga, yuragiga bitmas jarohat yetkazgani aniq.

Bu voqea yuzasidan bildirilgan munosabatlarni, fikr-mulohazalarni o'qib, shunday xulosaga keldik. Adliya vazirligi mas'ul xodimi Shaxnoza Soatova ta'kidlaganidek: "Bunday hol boshqa takrorlanmasligi uchun nima qilish kerak bo'lsa, barini qilish lozim!" Haqiqatan ham, bu gal ham unutilish, o'tkazib yuborish, aybdorni jazosiz qoldirish mutlaqo mumkin emas.

Sh. Soatova yuz karra haq: "Zulm – bu bir lahzalik akt emas, bu aks-sado-si va oqibati uzoq davom etadigan yemiruvchi jarayondir. Oldini olish samaraliroq, oqibatlar bilan kurashish qimmat va qiyin. Surxondaryodagi maktabda kaltaklangan ayollar bilan hamdardman..."

Bunday ayanchli manzaralarni hazm qilish qiyin, albatta. Bu yovuzlik va shafqatsizlikning ibtidosi. Bag'ri-toshlik va tubanlikning bir ko'rinishi, insoniylik qiyofaning yo'qolishi bu...

Darhaqiqat, bunday holatlarning takrorlanmasligi uchun nima qilish kerak?! Har doim fojialar va bunday ko'rguliklar sodir etilganda do-faryod qilishga, keyin uch-to'rt kun o'tgach barchasini unutishga odatlanib qoldik. Va bu loqaydligimiz, lov etib yonib, birpasda o'chib qolishimiz yomonlik va razolatga oshno bo'lganlarga juda qo'l kelmoqda. Va bu jarohatlar jamiyatning bitmas jarohatlariga aylanib, javobsiz va davosiz dardga aylanayotganiga barchamiz guvohmiz. Bu ruhiy zarbalar ortida jabrlanganlar umrining oxirigacha yoddan chiqmaydigan qo'rqinch va alam borligini unutmaylik.

"USTOZ OTANGDEK ULUG'" DEGAN MAQOL ESKIRDIMI?

Yurtimizda o'qituvchilarning nufuzini oshirish borasidagi harakatlardan yo'q emas. Garchi tildagi bu harakatlar hozircha amalda o'z ijrosini, o'z ifodasini topmagan bo'lsa-da, o'qituvchining hayoti, jamiyatdagi o'rni, nufuzi, qadr-qimmat o'zgarishidan umidvormiz. Xuddi shu yo'l bilan ta'limdagi yutuqlarni ko'paytirish mumkinligi ham ayni haqiqat. Ammo hozircha "ustoz otangdek ulug'" degan maqolni pisand etmasdan, ustozlarning sha'ni, qadr-qimmatini gohida ota-onalar, gohida o'quvchilar, mana endi hamkasblar ham oyoqosti qilishidan tap tortmaydigan darajaga yetganimizni qanday oqlashni ham bilmaymiz.

Ta'limni rivojlantirish uchun Finlandiya tajribasini, boshqa rivojlangan davlatlar metodikasini o'rganamiz deb maqtanamiz, iddao qilamiz. Ammo ta'lim beradigan ustozning maqomini ko'tarish va sha'nini hurmat qilishga, uni himoya qilishga qurbimiz va kuchimiz yetmaydi.

Tarbiya ta'limdan ustun. Hammasiga tarbiyasizlik sababchi ekanligi ayon. Aslida ta'lim tizimidagi har qanday yutuq zamirida o'qituvchiga bo'lgan hurmat zohir bo'lishi lozim. Aynan ta'lim-tarbiya tizimini namunaligacha qo'ya olgan davlatgina rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi aniq.

Yaponiyada o'qituvchiga vazirning maoshi, imperatorning obro'si, deputatning daxlsizligi berilganligi sababli ana shunday yuksak natijaga erishilgani haqidagi ma'lumotni har gal eslaganda ko'nglimda havasdan ham kuchliroq, orzudan ham yuksakroq sharhsiz tuyg'u paydo bo'ladi.

Biz nega g'urbatlar, beshafqat yovuzliklar changalida qoldik? Endi andishaning otini qo'rqqoq deyishdan, kerak bo'lsa, andishadan voz kechaylik. Farzandlarimizni, ayniqsa, qizlarni qo'rqqoq va itoatkor qilib emas, balki qo'rqmas, o'ziga ishongan, o'zini himoya qila oladigan kuchli, jasoratli qilib tarbiyalaylik. Atrofimizda bo'layotgan ko'rguliklar boshimizga tushmasin! Insoniy qadriyatlarini oyoqosti qilishga yo'l qo'ymaylik.

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri



**INSON
va qonun**

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



**Bosh
muhariri**
Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Hayotjon Klichev
Sevara O'rinboyeva
Yorбек Iskandarov
Diifuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqir
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Yorбек Iskandarov
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jumali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraj: – 3835
Buyurtma – 1188

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5